

## VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING VUJUDGA KELISH SABABLARI VA ULARNING JAMIYATGA TA'SIRI

*Baxtiyorov Bahromjon Toshtemir o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzg*

*i ta'lim Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati*

*fakulteti ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan*

*3-o'quv kursi 322-o'quv guruhi kursanti*

*Mustofaqulov Bobur Asror o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*

*Xuquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati*

*kafedrası o'qituvchisi, kapitan*

**Anotatsiya:** Ushbu maqola voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyatining tushunchasi, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari, chora- tadbirlari, bu chora- tadbirlarni tashkil etish tartibi, bugungi kundagi xolati va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlar, bundan tashkari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tartibga soluvchi huquqiy asoslar, voyaga yetmaganlar bilan ishlashning amaliyoti tahlili va ularga nisbatan ko'llaniladigan chora-tadbirlar, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashdagi muammo va kamchiliklar, shuningdek ayrim turdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir kator takliflar, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati buyicha boshka xorijiy davlatlarning ilg'or xorijiy tajribasi xamda milliy konunchiligimizdan farkli va o'xshash tomonlari, shuningdek, yukorida keltirib o'tilgan jixatlardan foydalangan xolda ushbu faoliyatni takomillashtirish yunalishlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** voyaga yetmagan, oila, sog‘lom muhit, jamiyat, tarbiya, qarovsiz, nazoratsizlik, oilaviy muhit.

**Annotation:** In this graduating moral work, the followings are described the concept of the inspector of prevention for teenage misbehavior, the types of teenage crime prevention, the ways of carrying out these types, their current situations unique methods of carrying out teenage crime prevention on side of inspector of crime prevention, as well as basis of laws that controls teenage crime prevention, the analysis of practice of working with teenagers and the procedural documents used in in this practice, mistakes and omissions observed while working with previously convicted people, a set of suggestions to deal with a number of mistakes and faults, developed experience of foreign countries to carry out teenage crime prevention and similarities and contrasts with them in our national law system, with the approaches to develop the field by using the above-mentioned aspects.

### KIRISH

Ma'lumki, barcha shaxslar birinchi tarbiyani oilada oladi va jamiyatga mustaqil qadamni oila orqali qo'yadi. Oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, u yerda tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlar tarbiyasi to'g'ri tashkil etilgan, xulqatvori va ta'lim olish jarayoni nazorat ostiga olingan bo'ladi. Bunday oilalarda ota-ona va oilaning boshqa a'zolari tomonidan g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar qilish, voyaga yetmaganlarni turli g'ayriijtimoiy illatlarga jalb etish kabi salbiy harakatlar sodir etilmaydi. Chunki, bu toifadagi oilalar jamiyat uchun xavf-xatar keltiradigan farzandlarni tarbiya qilmaydi. Biroq, jamiyatda shunday oilalar ham borki ular jamiyat hayoti uchun keltirayotgan salbiy oqibatlarni tasavvur etish ham, juda qiyin. Bunday oilalar «ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila» deb e'tirof etilib, alohida toifadagi oila hisoblanadi. Garchi «ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila» tushunchasi mazmun-mohiyati bilan keng ma'noga ega bo'lsa-da, ammo noto'liq bo'lgan va ba'zan huquqbuzarliklar sodir etilib turiluvchi oilalarni ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila deb e'tirof etish noto'g'ridir. Negaki, O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va

huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»<sup>1</sup> qonunining 3-moddasida ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila –ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila»<sup>2</sup>.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oiladayashovchi er-xotin o'rtasida vujudga keladigan nizolarning kriminologik va psixologik xususiyatlari, oqibatlar hamda o'ziga xos jihatlari bevosita boshqa nizolardan tubdan farq qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oilaning ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolga kelishiga oilada nosog'lom turmush tarzini yuritish, oila a'zolari o'rtasida samimiy munosabatlarning mavjud emasligi, erkakning o'z manfaatini ayollar manfaatidan ustun qo'yishi kabi holatlar birmuncha ko'proq kuzatiladi. Bunday holatlar oilada shaxs huquqlari poymol bo'lishiga olib keladi. Ta'kidlash joizki, fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqib huquqlarni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etadilar.

Oila a'zolarining o'z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o'z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart. Zero, har qanday huquqbuzarlikning sodir etilishida shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini poymol etilgan bo'ladi. Bu ayrim huquqiy ongi va madaniyat darajasi rivojlanmagan shaxslar ma'lum sabablarga ko'ra, o'z huquq va erkinligini himoya qilish u yoqda tursin, ularni bilish va anglashga ham qodir emasligidan dalolat beradi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги «Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида»ги қонуни. <http://www.lex.uz>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида»ги қонуни. <http://www.lex.uz>

Ma'lumki, profilaktika inspektorlarining ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni aniqlash, oila-turmush doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish, hisobga olish, tegishli jazo choralari qo'llash hamda ular bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni amalga oshirishda bir qator jamoat tuzilmalari bilan tasdiqlangan reja asosida hamkorlikni amalga oshiradi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalla qo'mitalarida yarashtirish komissiyalari tomonidan oilada huquqbuzarliklarni bartaraf qilish, er-xotin o'rtasida buzilgan munosabatlarni ko'rib chiqish, ularni yarashtirish borasidagi ishlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huzuridagi yarashtirish komissiyalarida ko'rib chiqilayotganligi o'zining samarasini bermoqda.

Ushbu hamkorliklar natijasida o'tgan yillar mobaynida qanchadan qancha oilaviy mojarolar, ajralishlar, nizoli holatlar, janjallar kabi masalalar ko'rib chiqilib ularni muhokama qilish natijasida oilalardagi notinchliklarga va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan va sodir etilgan huquqbuzarliklarning oqibatlariga barham berilmoqda. Kolvera, jamiyatda xukukbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka karshi kurash maksadida maxalla jamoatchilik posponi va xukukbuzariliklar profilaktikasi inspektorlari ko'rsatmalariga ko'ra xar bir mahallalarda fidokor yoshlar jamoat tuzilmalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 dekabrda 4075-sonli «Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bilan xam jamiyatimizda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka karshi kurashish maksadida har bir mahallada «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish sohasidagi Toshkent shahrining ijobiy tajribasi respublikaning barcha hududlariga tatbiq etilishi voyaga yetmaganlar va yoshlarning o'zlari qatori barcha tengdoshlariga namuna sifatida va xar bir ota-onalarning farzand tarbiyasida u kabi tengdoshlarining o'rnak kilib kursatishlarining o'zi xam voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida profilatikasi inspektori faoliyatida yakindan yordam hisoblanib

qolversa, ular o'rtasida hukubuzarliklarning keskin darajada kamayishiga o'z xissasini ko'shgan xisoblanadi<sup>3</sup>.

Mamlaktimizda voyaga yetmaganlar va yoshlarning keng qamrovli ahamiyatini yanada orttirish va ularni rolini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan vasiylik va homiylik tizimini isloh qilish yo'li bilan bolalarning oilada yashash va tarbiyalanish huquqini ta'minlash, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, bola huquqlariga oid xalqaro standartlar qoidalarini implementatsiya qilish va mazkur sohada huquqlarni qo'llash amaliyoti ustidan samarali parlament va jamoatchilik nazoratini ta'minlash, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida "Ayollar huquqlari" va "Bola huquqlari" o'quv kurslari joriy etilishi

beogilab berildi.<sup>4</sup>

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ya'ni ayni paytda ularni har tomonlama ijtimoiy himoyalash masalasiga alog'ida etibor qaratgan desam yanglishmagan bo'laman. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni O'zbekistonning huquq tarixida bola huquqlariga oid birinchi maxsus qonun bo'ldi. Mazkur Qonun bolaning huquqiy ahvolini yaxshilashga doir munosabatlarni tartibga solishga, bola huquqlarini va erkinliklarini yuridik kafolatlashga qaratilgan. Unga binoan, bola huquqlari va manfaatlarini amalga tatbiq etilishini ta'minlaydigan kafolatlarni belgilash qonun bilan tartibga solinadigan asosiy ob'ekt hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidahamda qonunchilikka muvofiq har bir voyaga yetmagan va yosh fuqaroning huquqlari va erkinliklari

---

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 декабрдаги «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги» ПҚ-4075-сонли қарори.<http://www.lex.uz>

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022—2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60 сонли Фармон.<http://www.lex.uz>

kafolatlanishi va bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan:

- bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;
- bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash<sup>5</sup>.

Yosh fuqarolarning huquqlari va erkinliklari cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini biror bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi hamda bunday cheklash qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Davlat voyaga yetmaganlarni jazoni ijro etish muassasalarida va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida saqlashda shaxsning huquqlariga va qadr-qimmatini hurmat qilinishiga, insonparvarlik prinsiplariga rioya etilishini kafolatlaydi. Voyaga yetmaganlar uchun ular sodir etgan huquqbuzarlikning og'irlik darajasi va ularning yoshi hisobga olingan holda jazoni ijro etish muassasalarida va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq rejimda saqlash nazarda tutiladi<sup>6</sup>.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda voyaga yetmaganlar va yoshlar uchun quyidagilar kafolatlanadi:

- bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi; bepul umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim olish;
- davlat ta'lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta'lim olish; davlat sport-sog'lomlashtirish va madaniy-ma'rifiy muassasalariga

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 7 январдаги «Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги қонуни.<http://www.lex.uz>

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 12 августдаги «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги Қонуни.<http://www.lex.uz>

borish uchun shart-sharoitlar yaratish; uy-joy qurish, olish va uni rekonstruksiya qilish uchun imtiyozli

kreditlar berish; ta'lim muassasalarida o'qish uchun imtiyozli kreditlar berish; yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni

turar joylar bilan ta'minlash; o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta'lim muassasasini bitirganidan

keyin bandlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish; mehnat sohasida yoshga doir o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda

imtiyozlar berish va ishni ta'lim bilan qo'shib olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish; jamoat transportidan foydalanishda imtiyozlar berish. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi – voyaga yetmaganlar o'rtasida g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy, pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish doirasida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-profilaktik faoliyat.

Yakka tartibdagi profilaktika faoliyati asosan avval jinoyat, huquqbuzarlik sodir etgan va jinoyat sodir etishga moyil alohida voyaga yetmaganlarning ongida ijobiy hislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Bunda profilaktika inspektorlari jarayonga psixologlarni jalb etishlari maqsadga muvofiqdir.

Profilaktika inspektorlari voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda yakka profilaktik choralarni tarbiyasi og'ir va huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarga, voyaga yetmaganlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yoshi katta shaxslarga va voyaga yetmagan farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalar hamda ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan yuritiladi. Voyaga yetmaganlar, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalarni profilaktik hisobga olish IIB boshlig'ining qarori, sud organlari ajrimi, tergov organlari qarorlari, xokimliklar qoshidagi "Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar"ning qarorlari,

asos bo'lishi mumkin. Profilaktika inspektorlari voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda yakka profilaktik choralarni tarbiyasi og'ir va huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarga, voyaga yetmaganlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yoshi katta shaxslarga va voyaga yetmagan farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalar hamda ularning bosuvchi shaxslarga nisbatan yuritadi. Keltirilgan shaxslar profilaktik hisobga olinadi va ularga nisbatan voyaga yetmaganlar orasiqbuzarliklarining oldini olish bo'limlarida profilaktik hisob yuritiladi, profilaktika inspektorlari esa ular haqidagi ma'lumotlarni yig'adi va TP pasportiga ularning ro'yxatini kiritadi.

Viktimologik profilaktika – huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyatidir .

Ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan yosh fuqarolarni ishga joylashtirishga yordam qo'shimcha ish o'rinlari va ixtisoslashtirilgan korxonalarni barpo etish, o'qitish bo'yicha maxsus dasturlarni tashkil etish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan yoshlarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ish joylarining eng kam miqdori zaxirasini yaratish yo'li bilan ta'minlanadi. O'quv jarayoni vaqtida o'quvchilar va talabalarni jamoatchilik ishlariga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi, bundan ular tomonidan tanlangan mutaxassislikka mos va o'quvishlab chiqarish amaliyotining shakli bo'lgan hollar yoxud o'quvchilar va talabalar o'qishdan bo'sh vaqtida ixtiyoriy mehnat qilgan hollar mustasno. Yoshlar ijtimoiy xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham amalga oshirishi mumkin. Bu kabi normativ-huquqiy asoslar zamonlari rivojlangani sayin rivojlanib sayqallanib va yanada takomillashib boradi, albatta. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Miromonovichning tashabbuslari bilan isloxotlarning dastlabki yillarida mamlaktimizda voyaga yetmaganlarning va

yoshlarning, hamda uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazish va ularning ongini qamrab olgan turli hil aksariyat salbiy vayronkor g'oyalar hurujidan tozalash maksadida respublikamizning har bir viloyatlarida kitobxonlikni keng targ'ib qilish va ommalashtirish bu orkali yoshlarimizni va voyaga yetmaganlarni kitobni sevishga hamda ona vatanga muhabbat va ajdodlarimiz tarixini mukammal o'rganish shu asnoda jamiyatda voyaga yetmaganlar tomonidan hukukbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish kabi vazifalarni xalq etish muxim dasturilamal bo'lib xizmat qildi desak xech yanglishmagan bo'lamiz. Voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlarida huquqiy madaniyati, xuquqiy ongini oshirish maqsadida qonunlar ruxi ostida tarbiyalash uchun umumiy o'rta talim tizmiga shu yo'nalish bilan bog'liq fan kiritilishi va o'qitish kuchaytirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ham shu mavzu bilan bog'liq ko'rsatuvlar tashkil etish.

*Voyaga yetmaganlar bilan ishlash faoliyatiga oid nazariy bilimlarni kuchaytirishga oid taklif va tavsiyalar:*

*Birinchidan*, faoliyatning o'ziga xususiyatlarini inobatga olgan xolda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan *targ'ibotni* tashkil eta olishdir. Targ'ibot qanday ko'rinishda bo'lmasin, kishi ongi, dunyoqarashi kaliti hisoblanadi. Bosh qonundan tortib qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetish, fuqarolik va turli huquqiy ko'rsatmalarni bilish, huquqiy targ'ibotlarni qanday ko'rinishi bo'lmasin uni tahlil qila olish, o'z huquqini himoya qila olishida namoyon bo'ladi. Bu esa qonunni buzish nechog'lik xatoligini, unga nisbatan doimo hurmatda bo'lish kerakligini tushunishga olib keladi.

*Ikkinchidan*, hududdagi yoki mahalladagi **oilalar bilan hamkorlik** ham muhim o'rin tutadi. Voyaga yetmaganlar qonunga nisbatan hurmat hissini

uyg'otib tarbiyalash muhim omil sanaladi. Buning uchun esa ota-ona huquqiy madaniyatdan, qolaversa ma'naviyatdan voqif bo'lishi lozim. Ushbu kerakli "ozuqa"lar ta'sirida voyaga yetgan farzand qonun ustuvorligini anglab yetishi, oilasi, avlod-ajdodlari tarixini ulug'lashi, o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, dini,

madaniyatidan g'ururlanishi, uni avaylab-asrashi, dunyoga ko'z-ko'z qilishi tabiiydir<sup>7</sup>.

*Uchinchidan*, huquqiy tarbiya uzluksiz ekanligini inobatga olish lozimdir. U yoshlikdan boshlab qo'llanib borilishi maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmaganlar maktabgacha tarbiya muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida o'quv davomida esa bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi huquqiy maqom kasb etishi zarur. Voyaga yetmaganlarga huquqiy tarbiya berishdan ko'zlangan maqsadlardan biri – har bir yosh inson huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir. Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar voyaga yetmaganlar bilan ishlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikning yangi usul va shakllarini ishlab chiqish, va faoliyatga yangicha tarzda yondashishni talab etmokda.

### ***Foydalinilgan adabiyotlar***

1. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
2. <http://press-service.uz/uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
3. <http://natlib.uz> (Alisher Navoiy Nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi).
- 4 <http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
5. <http://ziyonet.uz> (ZiyoNET ta'lim portali).
6. <http://utube.uz/ru> (Utube.uz ta'lim videoportali).
7. <http://book.uz/> (Elektron adabiyotlar kutubxonasi).
8. <http://www.xs.uz> («Xalq so'zi» gazetasi).

---

<sup>7</sup> Севаров О. «Опилада ота-оналар ҳуқуқий саводхонлигини оширишнинг ўзига хос усули // Аёл маънавият гулшани: Илмий-амалий конференция тўплами.